

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI


"Kiritdi"
O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat
instituti rektori

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va
innovatsiyalar vazirligi

"Tasdiqlayman"
O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi


N.B.Sayfullayev

“01” 06 2024-y



KASBIY (IJODIY) IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

60211000 – San'atshunoslik: teatrshunoslik ta'lif yo'nalishi uchun
(sirtqi)

- Teatrshunoslik fanidan
- O'zbek teatr tarixi fanidan

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil _____ -sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar:

A.Z.Rizayev

- O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrasi professori, san’atshunoslik fanlari nomzodi

F.M.Abdurovohidov

- O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrasi dotsenti, (PhD)

Taqrizchilar:

M.T.To‘laxo‘jayeva

- O‘zDSMI “San’atshunoslik” kafedrasi professori, san’atshunoslik fanlari doktori

A.H.Ismoilov

- San’atshunoslik instituti “Teatr va xoreografiya” bo‘limi mudiri, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kirish

60211000 – San’atshunoslik: teatrshunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga kiruvchi abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihoni, me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida shakllantiriladi va kirish imtihonlari unga muvofiq o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha kirish imtihonlari, har bir ixtisoslik uchun ta’kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha imtihon o‘tkazilishining ketma-ketligi, institut qabul komissiyasi tomonidan belgilanadi va har yili qabul qilish qoidalar shakllantiriladi.

60211000 – San’atshunoslik: teatrshunoslik san’at sohasidagi ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, u o‘z ichiga teatr san’ati hamda teatrshunoslikning zamonaviy va tarixiy jarayonlarini o‘rganishni, teatr san’atidagi voqeа va hodisalar haqida xulosalar chiqarishni, tarixiy va zamonaviy mavzularda spektakllarning mavzusi, g‘oyaviy mazmuni, jamiyat insonlariga ma’naviy-ma’rifiy ta’sir kuchi, ahamiyatli jihatlari muammo va yechimlari to‘g‘risida ilmiy va muammoli maqolalar yaratish, teatr san’ati to‘g‘risida ilmiy-ommabop adabiyotlar, turli spektakllarga taqrizlar yozish, teatr va teatr ijodkorlari haqida fundamental ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, teatr san’atining ijodiy jarayonlari, yutuq va muammolari xususida tadqiqotlar olib borish, olingan natijalarini OAVda keng yoritib borish majmuini qamrab oladi.

Fanning maqsadi va vazifasi

60211000 – San’atshunoslik: teatrshunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishda kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning teatrshunoslik, teatr tarixi fanlaridan ijodiy-ilmiy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy teatrshunoslik va o‘zbek teatr tarixi fanlaridan kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradi.

Teatrshunoslik fani bo‘yicha

Teatrshunoslik fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og‘zaki javob berishi kerak. Yozma ishda abituriyent o‘zining ilmiy va ijodiy salohiyatini ko‘rsatishi lozim. Savol-javob teatr san’ati sohasiga tegishli mavzular doirasida o‘tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo‘yicha abituriyentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, qobiliyati kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

Teatrshunoslik faniga qo‘yiladigan talablar:

- teatr san’ati to‘g‘risida umumiy tasavvurga ega bo‘lishi;
- teatr san’atining vujuga kelishi, shakllanish jarayonlari, asoschilarini va yirik namoyandalarini haqida bilishi;
- dramaturgiyaning tur va janrlari;
- teatr ijodkorlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;

- teatrshunoslar faoliyatidan xabardorligi;
- pyesa va ssenariyni, spektakl hamda kinofilmlarni bir-biridan farqlay olishi;
- pyesa va spektakllarni tahlil qila olishi;
- o‘zbek teatr arboblari (dramaturg, rejissor, aktyor va boshqalar) ijodi haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- bolalar va qo‘g‘irchoq teatrlari faoliyatidan xabardorligi;
- teatr festivallari haqidagi tasavvuri;
- o‘zbek teatrshunoslari faoliyatidan xabardorligi;
- dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimini bayon qilish mahorati sinovdan o‘tkaziladi.

O‘zbek teatr tarixi fani bo‘yicha

O‘zbek teatr tarixi fanidan suhbat jarayonida abituriyentning jahon va o‘zbek teatrining vujudga kelishi, rivojlanishi hamda taraqqiyot bosqichlari haqidagi tasavvurlari sinovdan o‘tkaziladi.

O‘zbek teatr tarixi faniga qo‘yiladigan talablar:

- jahon teatri tarixdan xabardor bo‘lishi;
- o‘zbek teatrining vujudjga kelishi, rivojlanish bosqichlari va uning asoschilari faoliyatini bilishi;
- o‘zbek teatrining yirik namoyandalari (dramaturg, rejissor, aktyor va boshqalar) ijodini bilishi;
- musiqali teatrlar faoliyati va ijodkorlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- Mustaqillik davri o‘zbek teatrining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi;
- o‘zbek teatrining keyingi yillardagi ijodiy faoliyatidan xabardorligi;
- Mustaqillik davri o‘zbek teatrlaridagi mavzu va g‘oyaviy mushtaraklik haqidagi tasavvuri;
- o‘zbek teatridada zamondosh obrazini aks ettirilish jarayonlari haqidagi tasavvuri sinovdan o‘tkaziladi.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Teatrshunoslik fanidan kirish imtihonida abituriyent berilgan savollarga og‘zaki javob berishi kerak. Savol-javob teatr san’ati va teatrshunoslik sohasiga tegishli mavzular doirasida o‘tkazilib, suhbat jarayonida ixtisoslik bo‘yicha abituriyentning dunyoqarashi, fikrlash darajasi, qobiliyati kasbiy tasavvuri tekshiriladi.

Teatrshunoslik fanidan abituriyentlarga qo‘yiladigan talablar: teatr san’ati to‘g‘risida umumiylashtirishga ega bo‘lishi, teatr san’atining vujuga kelishi, shakllanish jarayonlari, asoschilari va yirik namoyandalarini bilishi,

dramaturgianing tur va janrlari, teatr ijodkorlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi, teatrshunoslar faoliyatidan xabardorligi, pyesa va ssenariyni, teatr hamda kinofilmarni bir-biridan farqlay olishi, pyesa va spektakllarni tahlil qila olishi, o‘zbek teatr darg‘alari (dramaturg, rejissor, aktyor va boshqalar) ijodi haqida tasavvurga ega bo‘lishi, yoshlar va qo‘g‘irchoq teatrlaridan xabardorligi, teatr festivallari haqidagi tasavvuri, madaniy va ma’naviy qiyofasi yuqoriligi bo‘lishi kerak.

O‘zbek teatri tarixi fanidan abituriyent jahon teatri tarixidan xabardor bo‘lishi, o‘zbek teatrining vujudjga kelishi, rivojlanish bosqichlari va uning asoschilari faoliyatini bilishi, o‘zbek teatrining yirik namoyandalari (dramaturg, rejissor, aktyor va boshqalar) ijodini bilishi, musiqali teatrlar faoliyati va ijodkorlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi, Mustaqillik davri o‘zbek teatrining o‘ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi, o‘zbek teatrining keyingi yillardagi ijodiy faoliyatidan xabardorligi, Mustaqillik davri o‘zbek teatrlaridagi mavzu va g‘oyaviylik, mushtaraklik haqidagi tasavvuri, o‘zbek teatrda zamondosh obrazini aks ettirilish jarayonlari haqida tasavvuri bo‘lishi kerak.

Kasbiy (ijodiy) imtihonlar quyidagi mezon asosida baholanadi:
Teatrshunoslik fani bo‘yicha

| T.r. | Talabning mazmuni | Maksimal ball |
|------|--|---------------|
| 1. | Teatr san’ati va uning o‘ziga xos xususiyati haqidagi umumiy tasavvuri | 10 |
| 2. | Jahon va o‘zbek dramaturglari ijodidan xabardorligi | 9 |
| 3. | Dramaturgianing tur va janrlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi | 10 |
| 4. | Pyesa va ssenariyni, spektakl hamda kinofilmarni bir-biridan farqlay olishi | 10 |
| 5. | Spektakllarni mavzu va janr jihatidan bir-biridan farqlay olishi | 10 |
| 6. | Bolalar va qo‘g‘irchoq teatrlari faoliyatidan xabardorligi | 10 |
| 7. | Pyesa va spektakllarni nazariy jihatdan tahlil qila olishi | 8 |
| 8. | Dramaturgning rejissor bilan hamkorligi va spektakl jarayonlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi | 10 |
| 9. | Teatrshunoslar faoliyatidan xabardorligi | 10 |
| 10. | Abituriyentning dunyoqarashi, muomala madaniyati va bilimini bayon qilish qobiliyati | 6 |
| | Jami | 93 |

O‘zbek teatri tarixi fani bo‘yicha

| T.r. | Talabning mazmuni | Maksimal ball |
|-------------|--|---------------|
| 1. | Teatr san’atining vujuga kelishi, shakllanish jarayonlari, asoschilari va yirik namoyandalari haqida | 6 |
| 2. | Teatr san’atining ijodiy-tashkiliy jarayonlaridan xabardorligi | 6 |
| 3. | Jadid dramaturgiyasi haqidagi tasavvuri | 6 |
| 4. | O‘zbek teatrining yirik namoyandalari (dramaturg, rejissor, aktyor va boshqalar) ijodini bilishi | 7 |
| 5. | Musiqali teatrlar faoliyati va ijodkorlari haqida tasavvurga ega bo‘lishi | 6 |
| 6. | Mustaqillik davri o‘zbek teatrining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvuri | 6 |
| 7. | O‘zbek teatrining keyingi yillardagi ijodiy faoliyatidan xabardorligi | 6 |
| 8. | Mustaqil davri o‘zbek teatrlaridagi mavzu va g‘oyaviy mushtaraklik haqidagi tasavvuri | 7 |
| 9. | O‘zbek teatrida zamondosh obrazini aks ettirilishi jarayonlari haqidagi tasavvuri | 7 |
| 10. | Teatr festivallaridan xabardorligi | 6 |
| Jami | | 63 |

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi

5150200 – San’atshunoslik: teatrshunoslik bakalavriat (*sirtqi*) ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar uchun jadval asosida belgilangan kunlarda ijodiy imtihonlar bo‘lib o‘tadi.

Ijodiy imtihonlar qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan guruhlarda suhbat, savol – javob asosida maxsus jihozlangan xonalarda o‘tkaziladi.

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hayatiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat faqat o‘zining ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyent haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

1. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021.
2. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning muhim poydevoridir. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyorilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 4 avgust, 153-son.
3. "Madaniyat va san'at sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.- T.:2017-yil 15-fevral.
4. Jabborov A. O'zbek musiqali dramasi. – T.: G'. G'ulom, 1997.
5. Islomov T. Tarix va sahna. – T.: G'.G'ulom, 1998.
6. Rahmonov M. Hamza. (O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi.) (1914 –1960 yillar). – T.: G'.G'ulom, 2001.
7. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M., Muxtorov I. O'zbek milliy akademik drama teatri tarixi. – T.: O'qituvchi, 2003.
8. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – T.: Sharq, 1997.
9. Rizayev O. Nabi Rahimov. – T.: G'.G'ulom, 1997.
10. Tursunov T. Sahna va zamon. – T.: Yangi asr avlodi, 2007.
11. Tursunboyev S. Xorijiy teatr tarixi. – T.: Abu Ali ibn Sino, 1999.
12. Tulyaxodjayeva M. Режиссура узбекского драматического театра. – T.: G'.G'ulom, 1995.
13. Tursunov T. Turg'un Azizov. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
14. Qodirova S. Teatrshunoslik – T.: Donishmand ziyosi, 2023.
15. Qodirov M., Qodirova S. O'zbek teatr tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2015.

Internet saytlari

1. www.Ziyo.net
2. <http://www.teatr.ru>
3. <http://www.uzbekteatr.skm.uz>
4. teatr.com
5. <http://www.mxat.ru>
6. <http://www.dsni.uz>